

## “TARBIYA KONSEPSIYASI”NING MAZMUN-MOHIYATI VA HAYOTGA TADBIQ ETILISHI

Toshpo’lotova Laylo Keldiyor qizi

Navoiy Davlat Universiteti

*Tarix fakulteti „Milliy g’oya ma’naviyat asoslari*

*va huquq ta’limi” yo’nalishi 3- bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Navoiy Davlat Universiteti, katta o’qituvchi,*

**N.Sharipova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada „Tarbiya konsepsiyasi”ning mazmun-mohiyati, ta’lim muassasalarida tadbiq etish bosqichlari,ta’lim konsepsiyasidan ko’zlangan asosiy maqsadlar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** konsepsiya,tarbiya fani,bosqichlari, prinsiplari

**Аннотация:** В данной статье раскрыта сущность концепции образования, этапы ее реализации в образовательных учреждениях, а также основные цели концепции образования.

**Ключевые слова:** понятие, наука об образовании, этапы, принципы

**Annotation:** This article covers the content and essence of the "Education Concept", the stages of its implementation in educational institutions, and the main goals pursued by the education concept.

**Keywords:** concept, educational science, stages, principles

Barchamizga ma'lumki,tarbiya insonning insoniyligini ta'minlovchi eng qadimiy va adabiy qadriyatlardan biri hisoblanib, tarbiyasiz nafaqat alohida odam, balki kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi.Sababi shundaki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.Ayni shu kabi masalalar inobatga olinib, O'zbekiston respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020- yilda o'zbek „Pedagogika” fani tarixida ilk bor „Tarbiya” fani

ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 6- iyuldagи 422- sonli „Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida „Tarbiya” fanini bosqichma- bosqich 5 amaliyotga joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida aynan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun „Tarbiya” fan konsepsiysi ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiya 5-bob 22-moddadan iborat bo'lib O'zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fani konsepsiysi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi. Shuningdek, Konsepsiada belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan “Bola huquqlari to'g'risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga asoslanadi.

I bob „Umumiy qoidalar” nomi bilan atalib, 1-6 moddalarni o'z ichiga oladi. Unda asosan kpnsepsiya nimalarga xizmat qilishi, qaysi qonunchilik hujjatlariga asoslanishi, konsepsiada belgilangan vazifalar qaysi qonun va o'zgarishlarga asoslanishi, qaysi davlat tajribalaridaga tayangani kabi masalalarga oydinlik kiritib o'tilgan. Xususan, tarbiya fani joriy qilinishining asosiy sabablari sifatida Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratayotgani ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘yayotgani, ayni shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fani konsepsiysi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab berishi kabi masalalar keltirib o’tilgan.

II bobda esa, Konsepsiyaning strategik maqsad va vazifalarining konseptual asoslarini qay tarzda ishlab chiqilganligi kabi masalalar yoritilgan bo‘lib, ushbu bob „konsepsiyaning dolzarbliji va zaruriyati” deb nomlanib 7- 8- moddalardan tashkil topgan. Unda Konsepsiya joriy etilishiga zaruriyat sifatida O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qilishi asos sifatida qayd etilgan .

III bob esa, konsepsiada belgilangan vazifalar ijrosini ta’munlashdagi asosiy prinsiplar, huquqiy asoslar, tashkiliy boshqaruv asoslari, ilmiy- metodik ta’minoti kabi masalalarga bag’ishlanib, „konsepsiyanı joriy etishning asos va prinsiplari” nomi bilan atalib 9- 13- moddalardan tashkil topgan. Unga muvofiq Konsepsiada belgilangan vazifalar ijrosini ta’munlashdagi :

### 1. Asosiy prinsiplari :

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

-tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

## 2. Huquqiy asoslari:

-Konsepsiyanı amalga oshirish orqali shaxs tarbiyasida milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

-vazirliklar va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari “Tarbiya” fani konsepsiyasining amalga oshirish tizimini tashkil etish kabilar tashkil qiladi.

## 3. Boshqaruvi asoslari:

-Konsepsiyanı amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning qo‘shma qarorlarni ishlab chiqish;

-ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, rag‘batlantirishni tashkil etish;

-“Tarbiya” fani konsepsiyasining samaradorligini monitoring qilish.

## 4. Ilmiy-metodik asoslari:

-shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirilishini ta’minlash;

-“Tarbiya” fani malaka talablari, o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarini shakllantirish;

-“Tarbiya” fani darsliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;

-“Tarbiya” fani o‘quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo‘naltirish;

-davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

-o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

-o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

-umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzlucksizligini ta’minlash.

IV bob „O’quv- metodik majmuaga qo’yiladigan talablar deb nomlanib 14-21-moddalardan tashkil topgan va unda O’quv- metodik majmuaga qo’yiladigan talablar, turli xil salbiy holatlarning oldini olish yo’llari, profilaktik ishlar, o‘quv metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari, darslikka qo’yiladigan didaktik, ilmiy- metodik, pedagogic- psixologik, estetik, gigiyenik talablar singarilar keltirib o’tilgan. Bu moddalar umumta’lim muassasalari o‘qituvchilari va o‘quvchilari uvhun dasturamal bo’lib xizmat qiladi desak yanglishmaymiz.

V bob „Yakunlovchi qoidalar” dan iborat bo’lib 22- moddani o’z ichiga oladi. Ushbu moddada Konsepsiya da nazarda tutilgan maqsad va vazifalarga erishishning maqsad va vazifalariga erishishning moliyaviy xarajatlari o’zbekiston Respublikasining davlat budjeti, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqilangan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi aytib o’tilgan.

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o‘rganildi, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi. Qaror loyihasiga ko‘ra, umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fani 1—9-sinflarda 2020/2021-o‘quv yilidan, 10—11-sinflarda 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich

amaliyotga joriy etish ko‘zda tutilgan edi.Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq ta’limi vazirligiga quyidagi vazifalar topshirildi:

- «Tarbiya» fani bo‘yicha umumiyo‘rtta ta’limning davlat ta’lim standartini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- 2020 yil 10 iyulga qadar 2020-2021 o‘quv yiliga umumiyo‘rtta ta’lim muassasalarining 1–9-sinflari uchun hamda 1 dekabrga qadar 2021-2022 o‘quv yiliga 10–11-sinflar uchun mo‘ljallangan yangi fan bo‘yicha darsliklar va o‘quv metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirish;
- 2020 yil 15 iyulga qadar 1–9-sinflar hamda 2021 yil 1 mayga qadar 10–11-sinflar uchun mo‘ljallangan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etish bo‘yicha istisno tariqasida deklaratсиya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyotmatbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish;
- «Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yangi o‘quv yili boshlangunga qadar chop etishni tashkil etish va ularning joylarga yetkazilishini ta’minlash;
- 2020 yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yili boshlangunga qadar «Tarbiya» fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv dasturlari va darsliklar asosida umumta’lim maktablaridagi «Boshlang‘ich ta’lim», «Milliy g‘oya va huquq», «Tarix» va «Dinshunoslik» mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida «Tarbiya» fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- malaka oshirish kurslari davomida yangi fandan tayyorlangan darsliklar va o‘quv metodik majmualarni tajriba-sinovdan o‘tkazish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak aynan „tarbiya” fani yosh avlodda yuksak axloqiy fazilatlar, milliy o‘zlikni anglash, insonparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va shu kabi sifatlarni shakllantiradi. Bunday fuqaro milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ish yurita oladi, jamiyatdagi salbiy ko‘rinishlarga tanqidiy nazar bilan qaraydi, o‘z vatanini sevadi va uning manfaatlarini himoya qiladi, milliy qadriyatlar egasi sifatida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sadi. Bir so‘z bilan aytganda Ushbu fanning maqsadi komil insonni shakllantirish va tarbiyalashdan iboratdir. Abdulla Avloniy aytganlaridek,

Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o’rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- 1.O’zbekiston Respublikasi „Tarbiya fani” konsepsiysi.2020- yil 6- iyul
- 2.G.B. Saidnazarova „Tarbiya fanini o’qitish metodikasi” . „Kamolot” nashriyoti 2024-yil
3. M. E. Axmedova va boshqalar.Pedagogik mahorat va tibbiy pedagogikaning kasbiy komponentligi. O’quv- uslubiy qo’llanma T.: „Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi MCHJ, 2021-yil
4. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/umumiyl\\_urta\\_talim\\_muassasalarida\\_tarbiya\\_fani\\_joriy\\_etiladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/umumiyl_urta_talim_muassasalarida_tarbiya_fani_joriy_etiladi)
5. <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. <https://www.lex.uz/docs/-4676839>
7. <https://efayl.uz/document/milliy-tarbiya-konsepsiysi/>
- 8.<https://kun.uz/news/2019/05/09/maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiysi-tasdiqlandi-prezident-qarori?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F05%2F09%2Fmaktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiysi-tasdiqlandi-prezident-qarori>
9. “Tarbiya fani:yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiyamaliy konferensiyasi. Toshkent.: 2023 yil. 22 noyabr.
- 10.[3796637\\_Tarbiya\\_fani\\_o'qituvchilarining\\_ijtimoiy\\_kompetensiyalarini\\_rivojlantiri\\_shning\\_mazmun\\_shakl\\_va\\_metodlari.](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/umumiyl_urta_talim_muassasalarida_tarbiya_fani_o'qituvchilarining_ijtimoiy_kompetensiyalarini_rivojlantiri_shning_mazmun_shakl_va_metodlari)